

NASRIY ASARLARDA PORTRET VA PEYZAJNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYALARI

Otazonova Feruza Odilbekovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti o'qituvchisi

feruzaotazonova@gmail.com

Тел: (+99894)233-94-93

Annotatsiya: maqolada tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan asarlarda inson va tabiat munosabatlari, qahramon ruhiyatini ochishda portret va peyzaj (tabiat tasviri) komponentlarining o'rni qiyosiy-tahliliy yo'nalishda o'rganilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Oybekning "Navoiy" romani hamda Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" qissasi tanlab olingan. Maqolada har ikki adibning qahramonlar tashqi qiyofasini chizish, ya'ni psixologik portret hamda o'tmish ijtimoiy muhitini jonlantirishda tabiat manzarasidan estetik vosita sifatida foydalanish mahorati, ularning janr o'ziga xosliklari doirasidagi farqli va o'xshash jihatlari aniq sahifalar misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: portret, peyzaj, psixologizm, xarakter dinamikasi, ijtimoiy muhit, badiiy detal, epika, janr, voqea rivoji, struktura, badiiy mahorat.

Аннотация: В статье в сравнительно-аналитическом аспекте исследуются взаимосвязь человека и природы в произведениях, посвященных жизни исторических личностей, а также роль компонентов портрета и пейзажа (изображения природы) в раскрытии психологии героя. В качестве объекта исследования выбраны роман Ойбека «Навои» и повесть Лидии Бат «Сад жизни». В работе на примере конкретных страниц анализируется мастерство обоих авторов в обрисовке внешности персонажей, то есть в создании психологического портрета, и использовании картин природы как эстетического средства для воссоздания социальной атмосферы прошлого, а также выявляются их сходства и различия в рамках жанровой специфики.

Ключевые слова: портрет, пейзаж, психологизм, динамика характера, социальная среда, художественная деталь, эпика, жанр, развитие сюжета, структура, художественное мастерство.

Annotation: The article comparatively and analytically examines the relationship between man and nature in works dedicated to the lives of historical figures, as well as the role of portrait and peyzaj (landscape) components in revealing the protagonist's psychology. Oybek's novel "Navoiy" and Lidiya Bat's story "The Garden of Life" were selected as the objects of research. Based on specific pages, the study analyzes the mastery of both authors in sketching the physical appearance of characters, specifically in psychological portraiture, and utilizing nature scenes as an aesthetic tool to revive the past social environment, while highlighting their differences and similarities within the framework of genre specificities.

Keywords: portrait, landscape, psychologism, character dynamics, social environment, artistic detail, epics, genre, plot development, structure, artistic skill.

Badiiy adabiyotda, xususan, epik janrlarda qahramon xarakterini chuqur ochish va voqealar sodir bo'layotgan makon hamda zamon muhitini vizual jonlantirishda portret va peyzaj muhim strukturaviy-estetik elementlar hisoblanadi. Adabiyotshunoslik nazariyasida portret shunchaki personajning tashqi qiyofasi emas, balki uning ichki ruhiy olami, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashini aks ettiruvchi psixologik ko'zgudur. Peyzaj esa voqealar rivoji uchun shunchaki fon vazifasini bajarmasdan, balki qahramon kayfiyati bilan hamnafaslik kasb etadi yoki davrning ijtimoiy-siyosiy dramalarini ramziy ma'noda to'ldiradi. Alisher Navoiy siymosiga bag'ishlangan Oybekning "Navoiy" romani hamda Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" qissasi tahlil qilinganda, har ikki muallifning epik tafakkurida portret va peyzaj yaratish mahorati individual uslubiy qonuniyatlar asosida shakllanganiga guvoh bo'lamiz.

Akademik Oybek "Navoiy" romanida bosh qahramon Alisher Navoiyning tashqi qiyofasini chizishda yuksak darajada va chuqur realizm tamoyiliga tayanadi. Adib Navoiy portretini uning o'ttiz yoshlardan oshgan, davlat arbobi sifatida kamolga yetgan pallasida shunday tasvirlaydi: *"Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin gavgdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqqlari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi... ifodalanadi"*¹⁷. Adib portret orqali Navoiyning nafaqat jismoniy jozibasini, balki uning ichki intellektual quvvati, ma'naviy vazminligi va cheksiz iroda kuchini gavdalandtiradi. Undagi "uzun va nafis barmoqlar" ijodkorlikka, "kenggina yuzdagi tafakkur" esa faylasuflikka ishoradir.

Sulton Husayn Boyqaro portretida esa butunlay boshqacha – dabdabali, ammo ichki beqarorlikka ega qiyofa ko'zga tashlanadi. Uning hashamatli qizil abrishim to'ni, belidagi qimmatbaho javohirlar qadalgan kamari uning sultonlik qudratini ko'rsatsa-da, Oybek uning *"yirik, qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zlarida iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho'x tabiat"* borligini chizish orqali portretni xarakter fojiasi bilan bog'laydi¹⁸.

Lidiya Bat esa "Hayot bo'stoni" qissasi xronologik evolutsiyasidan kelib chiqib, qahramonlar portretini yosh guruhlariga mos holda o'zgartirib boradi. Yosh Alisherning murg'ak, ko'zlari chaqnab turgan o'g'lon qiyofasi uning kamzuli ostidagi kitob bilan to'ldiriladi. Husayn Boyqaroning portretida esa adiba uning tabiatidagi yirtqichlik va hokimiyatparastlik elementlarini tashqi belgilarda bo'rttiradi: *"Husaynning ko'zlari chaqnab, lablari orasidan yirtqichniki singari mayda o'tkir tishlari ko'rinib ketdi"*¹⁹. Lidiya Bat talqinidagi bu portret detal Boyqaro xarakteridagi shafqatsizlik va dushmanlik ibtidosini muayyan ma'noda ochiqalaydigan yetakchi vositadir.

Har ikki asarda ham quyi tabaqa vakillari va amaldorlar portreti ijtimoiy tengsizlikni ko'rsatishga yo'naltirilgan. Oybek ijodidagi To'g'onbek portreti bunga yaqqol misoldir. Uning *"yo'g'on, chorpaxil gavgdasi, dakkam-dukkam qizg'ish mo'ylabli; keng, qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan; qisiq ko'zlari ayyorcha beqaror... egnida qo'pol eski po'stin, boshida*

¹⁷ Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.33.

¹⁸ Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.43.

¹⁹ Bat L. Hayot bo'stoni: Qissa / Rus tilidan f.f.n. T. Jalolov tarjimai. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1968. – B.25.

qunduzi qalin katta bo'rk" tasviri uning harbiy muhitga mansubligini va o'tmish asorati bilan yashayotgan tabiatini anglatadi²⁰. To'g'onbekning bu qo'pol qiyofasi dabdabali saroy a'yon Majiddiddinning kibrli va mug'ombir portretiga hamda ma'rifatli talaba Sultonmurodning *"do'ng peshonali, miqti gavdali, o'tkir, yirik ko'zli"*²¹ intellektual qiyofasiga qarama-qarshi qo'yilgan.

Lidiya Bat qissasidagi sadoqatli xizmatkor Hoshim boboning portreti esa estetik jihatdan g'oyatda o'ziga xos: *"Hoshim bobo ko'rinishdan badbashara bo'lib, devday kuchi bor edi. Bir ko'zi ko'r, labi dordoq, gavdasi juda besunaqay... ammo o'zi mehribon, muloyim kishi edi"*²². Yozuvchi bu o'rinda tashqi badbasharalik bilan ichki qalb go'zalligi, sadoqat va silliq ma'naviyat o'rtasidagi kontrastni portret vositasida mukammal shakllantirgan.

Peyzaj yaratish borasida Oybek o'zbek adabiyotining eng tengsiz ustalaridan biri hisoblanadi. Romanning ilk boblaridanoq *"Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning Gavharshod madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari sho'lalarda jonli... kecha shovdirab o'tgan yomg'ir ko'zga ilinar-ilinmas bug' bo'lib havoga ko'tarilmoqda edi"*²³ degan tasvirlar orqali XV asr renessansining ulug'vor nafasi va ma'naviy iqlimi yaratiladi.

Oybek peyzaji har doim qahramon ruhiyati bilan parallel harakat qiladi. Masalan, Navoiy o'z xonasida yolg'iz qolib, sham yorug'ida o'yga tolganida, *"Tokchada yongan shamning shu'lasi va qiya ochiq darichadan tushgan oy nuri gilamlarning gullari ustida jivillab, xayoliy, mayin manzaralar... yasar, o'qtin-o'qtin esgan shabada sham yolqinini lipillatar"*²⁴ kabi peyzaj chizgilari shoir qalbida kechayotgan lirik hislar va ijodiy iztiroblar bilan birlashib ketadi.

Lidiya Bat qissasida esa peyzaj ko'proq dramatik pafosga va ijtimoiy qiyinchiliklarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Asar boshidagi Iroq yo'lidagi sahro tasviri bunga yorqin misoldir: *"Sahro shamoli qumlarni uchirib kelar... qum esa ko'z ochgani qo'ymas, yuzlarga kebil urilar, tishlar orasida g'ijirlardi"*²⁵. Bu yerdagi qum bo'roni, jazirama issiq va suvsizlik peyzaji Alisherlar oilasining boshiga tushgan surgunlik uqubatlari hamda o'sha davrdagi siyosiy tartibsizliklarning tabiatdagi proeksiyasidir. Shuningdek, qum bo'ronida yosh Alisherning otidan yiqilib, sahroda yolg'iz qolib ketishi epizodidagi vahimali tun peyzaji qahramonning hayot sinovlari qarshisida toblanish jarayonini psixologik jihatdan chuqurlashtiradi²⁶.

Xulosa qilib aytganda, Oybek va Lidiya Bat o'z asarlarida portret va peyzaj komponentlaridan shunchaki tasviriy vosita emas, balki g'oyaviy-psixologik maqsadlarni amalga oshiruvchi jozibador strukturaviy elementlar sifatida foydalanganlar. Oybek peyzaj va portret yaratishda lirik-falsafiy hamda keng ko'lamli epik uslubga tayangan bo'lsa, Navoiyning tashqi mukammalligi orqali uning millat ma'naviyatidagi o'rnini ko'rsatadi. Lidiya Bat esa

²⁰ Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.9.

²¹ Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.8.

²² Bat L. Hayot bo'stoni: Qissa / Rus tilidan f.f.n. T. Jalolov tarjimasi. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1968. – B.17.

²³ Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.5.

²⁴ Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.35.

²⁵ Bat L. Hayot bo'stoni: Qissa / Rus tilidan f.f.n. T. Jalolov tarjimasi. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1968. – B.5.

²⁶ Bat L. Hayot bo'stoni: Qissa / Rus tilidan f.f.n. T. Jalolov tarjimasi. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1968. – B.19.

xronologik-biografik janr talablaridan kelib chiqib, portret va peyzajni qahramonlarning xarakter dinamikasini, Husaynning yirtqich tishlari, Navoiyning kitobxon murgʻakligi hamda ijtimoiy muhit ziddiyatlari: sahro boʻroni, quvgʻinlik azoblari kabilarni realistik fosh etishga yoʻnaltiradi. Har ikki yondashuv ham tarixiy shaxs obrazining badiiy arxitektonikasini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 496 b..
2. Bat L. Hayot boʻstoni: Qissa / Rus tilidan f.f.n. T. Jalolov tarjimasi. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1968. – 232 b..
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. – 396 b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 288 b.